

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi Bank-
moliya akademiyasi rektori
E.A.Xoshimov**



« 28 » 2024-yil

**70410601 – “BANK ISHI” MAGISTRATURA
MUTAXASSISLIGIGA KIRISH BO‘YICHA MAXSUS FANDAN
SINOVLAR
 (“BANK ISHI” VA “BANK MENEJMENTI” FANLARI)**

DASTURI

Toshkent – 2024

Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlar dasturi Bank-moliya akademiyasi kengashining 2023-yil « 28 » 06 dagi 10 -sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

«TAVSIYA ETILGAN»

*“Raqamli bank ishi” kafedrası majlisida
muhokama qilingan va tavsiya etilgan*

Kafedra: R.Salayev

*(kafedra majlisining « 7 » -sonli bayonnomasi
« 26 » 06 2024- yil)*

Tuzuvchi:

Salayev R.Sh. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Raqamli bank ishi” kafedrası mudiri, PhD. dots., v.b.

Taqrizchilar:

Muxitdinova M.Z. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Raqamli bank ishi” kafedrası dots. v.b., PhD.
Saidov D. Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrası mudiri,
i.f.n., dotsent.

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli, 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-60-sonli, 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarorlarining asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Davlat moliyaviy nazorati va auditori” fanini budjet hisobi bo‘yicha bilimlarning nazariy asoslarini, budjet hisobining asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobi bo‘yicha amal qiluvchi tartiblar va tamoyillarni o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. Dasturda nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, budjet tizimi budjetlarini tuzish va ular ijrosi hisobining uslubiy asoslarini o‘rganish, budjet hisobi va hisobotiga oid ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobini tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash, davlat budjetini boshqarishda budjet hisobining ahamiyatini ochib berish tartibi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 70412204 – “Tijorat banklaini boshqarish” magistratura mutaxassisligiga tinglovchilikka o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlardan quyidagi bazaviy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

I. FANNING ASOSIY MAVZULARI

“BANK ISHI” MUTAXASSISLIK FANI

1-MAVZU. FANGA KIRISH. PULNING PAYDO BO‘LISHI, ZARURLIGI VA FUNKSIYALARI

Fanga kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Pulning zarurligi va paydo bo‘lishi. Pulning funktsiyalari. pul qiymatining o‘lchovi, muomala vositasi sifatidagi pul, to‘lov vositasi sifatidagi pul, jamg‘arish vositasi sifatidagi pul, jahon pullari Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi. Pulning rivojlanish bosqichlari.

2-MAVZU. PUL NAZARIYASI

Pul nazariyasining turlari. Pulning metallik nazariyasi. Pulning nominallik nazariyasi. Pulning miqdoriylik nazariyasi. Pulning davlatchilik nazariyasi. Keysning pul nazariyasi. Monetarizm nazariyasi. Pulga bo‘lgan talab va taklif. Pulning rivojlanish bosqichlari va pul nazariyasining mohiyati.

3-MAVZU. PUL MUOMALASI VA UNING TARKIBI

Pulga bo‘lgan talab va unga ta’sir etuvchi omillar. Fisherning pulga bo‘lgan talab nazariyasi. Keynsning likvidlikni afzal ko‘rish nazariyasi. Pul muomalasining tezligi, pul multiplikatori. Monetizatsiya nisbati. Pul massasi va pul agregatlari. O‘zbekistonda pul massasi va pul agregatlari.

4-MAVZU. PUL TIZIMI VA UNING ELEMENTLARI

Pul tizimi va uning asosiy elementlari. Pul tizimining turlari va ularning evolyutsiyasi. Bimetalik pul tizimi. Monometalik pul tizimi. Oltin standart. Oltin tanga. Oltin quyma. Oltin-valyuta Pul islohotlari. O‘zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy etilishi. Pul tizimining barqarorligi

5-MAVZU. INFLYASIYANING MOHIYATI, SHAKLLARI VA SABABLARI

Inflatsiya tushunchasi va turlari. Ochiq va yopiq inflatsiya. O‘tkir (o‘rtacha) inflatsiya. Galloping (sakrashga o‘xshash) inflatsiya. Giperinflatsiya. Inflatsiya sabablari. Inflatsiyani o'lchash usullari. Inflatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Inflatsiyaga qarshi kurash usullari.

6-MAVZU. KREDITNING ZARURLIGI, FUNKSIYALARI, SHAKLLARI VA TURLARI.

Kreditning mohiyati. Kredit munosabatlari, ularning obyektlari va subyektlari. Kreditning funktsiyalari va asosiy tamoyillari. Kredit munosabatlari evolyutsiyasi va kredit turlari Kredit shakllari va turlari. Davlat krediti. Bank krediti. Iste’mol krediti. Tijorat krediti. Xalqaro kredit. Bozor iqtisodiyotida kreditning roli.

7-MAVZU. KREDIT FOIZI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Kredit foiz stavkasi tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Nominal foiz stavkasi. Real foiz stavkasi. Oddiy va murakkab foizlar va ular qanday hisoblanadi. Kredit narxiga ta'sir qiluvchi omillar. O'zbekistonda kredit bozori. Qiziqish darajasining makroiqtisodiy jarayonlarga ta'siri.

8-MAVZU. BANK VA NOBANK MOLIYA TASHKILOTLARI

Banklarning iqtisodiyotdagi o'rni va vazifalari. O'zbekiston bank tizimi. Tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari. Banklar va nobank tashkilotlar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. Iqtisodiyotda bankdan tashqari moliya tashkilotlarining roli. Banklar va nobank tashkilotlari uchun zamonaviy moliyaviy xizmatlar.

9-MAVZU. VALYUTA TIZIMI VA PULNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI HARAKATI

Pul tizimi va uning elementlari. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari: Parij konferensiyasi va valyuta standarti. Genuya pul tizimi va uning xususiyatlari. Bretton-Vuds pul tizimining paydo bo'lishi, xususiyatlari. Yamaykaning pul tizimi va uning standarti. Valyuta kursining turlari va unga ta'sir etuvchi omillar Xalqaro hisob-kitoblar va ularning shakllari.

10-MAVZU. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI

Xalqaro moliya institutlari. Xalqaro valyuta fondi: maqsadi va vazifalari. Jahon banki: maqsad va vazifalar. Osiyo taraqqiyot banki: maqsad va vazifalar. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki: maqsad va vazifalar. Islom taraqqiyot banki: maqsadi va vazifalari. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliya institutlarining roli.

“BANK MENEJMENTI” MUTAXASSISLIK FANI

1-MAVZU. FANGA KIRISH. BANK MENEJMENTINING MASAD VA VAZIFALARI.

Bank menejment tizimining xususiyatlari. Bank menejmentining maqsadi, vazifalari, funktsiyalari. Bank menejmentining rivojlanish bosqichlari va turlari. Bank menejmentini tashkil etish tamoyillari va mexanizmlari. Bankda loyihalarni boshqarish. Bank menejmentining rivojlanish tendentsiyalari

2-MAVZU. TIJORAT BANKLARNING FAOLIATINI TASHKIL KILISH VA BOSHQARISH

Banklar faoliyatining tashkiliy asoslari. Bank boshqaruv organlari. Bankning tashkiliy tuzilmasi. Bankning aktiv va passivlarini boshqarish. Bankning foiz siyosatini boshqarish. Bankning investition faoliyatini boshqarish. Bank likvidligini boshqarish. Inson resurslarini rivojlantirish. Bankning moliyaviy risklarini boshqarish. Bankning texnik bazasini boshqarish. Bank harajatlarini boshqarish.

3-MAVZU. BANK MENEJMENTIDA BOSHQARUV SIKLI VA BIZNESNI MODELLASH

Boshqaruv siklining funksional elementlari. Bank faoliyatini rejalashtirish va prognozlash. Bank faoliyatini rejalashtirish va prognozlash usullari. Bozor prognozi. Biznes-rejalarni ishlab chiqish. Biznesni modellashtirish. Biznes injeniring. Strategik rejalashtirish. Operatsion rejalashtirish. Moliyaviy va iqtisodiy rejalashtirish. Bankni rivojlantirish strategiyasi. Bank strategiyani amalga oshirish texnologiyalari.

4-MAVZU. BANK HAVFSIZLIGINI BOSHQARISH

Bankning tushunchasi. Bankning moliyaviy risklarini diagnostika qilish va boshqarish. Biznesning uzluksizligi va tiklanishi. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari. Moliyaviy barqarorlikni yo'qotish, sabablari. Bank risklari va ularni boshqarish. Bankning iqtisodiy xavfsizligi. Bank axborot xavfsizligi. Raqamlashtirish sharoitida bank havfsizligini oshirish yo'llari.

5-MAVZU. O'ZBEKISTONDA BANK MENEJMENTI TASHKIL QILISH AMALIYOTI

O'zbekistonda bank menejmentining me'yoriy- iqtisodiy asoslari. O'zbekistonda bank menejment amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari. Milliy iqtisodiyotda zamonaviy bank menejmentining tahlili. Bank kadrlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston bank menejmentini takomillashtirish yo'llari.

6-MAVZU. BANKDA BIZNES JARAYONLARINI TASHKIL QILISH - BIZNESNI MODELLASHTIRISH

Bankda biznes jarayonlarini tashkil qilish va biznesni modellashtirishning iqtisodiy tushunchasi. Biznes jarayonlarini tashkil qilish bosqichlari. Biznes jarayonlarini tashkil qilish metodologiyasi. Bank biznes jarayonlarini takomillashtirish va biznes injeniring. Transfer bahosi (ichki xarajatlar hisobi). Bank rentabillik ko'rsatkichlari. Biznes jarayonlarini optimallashtirish.

7-MAVZU. BANK BOSHQARUV TIZIMIDA BANK MARKETINGI

Bank marketingining mazmuni. Bank marketing usullari. Bank marketingining tarkibiy qismlari. Bank mahsulotlari (xizmatlari) savdosini tashkil etish. Bank xizmatlar bozorini tahlil etish usullari. Bank mahsulotlarini reklamasini. Bank mahsulotlarini xarajatlarini optimallashtirish va sifatini oshirish. Bankda tahliliy ishning turlari. Bankda tahliliy ishlarni tashkil etish. Tahlil qilish texnikasi va usullari.

8-MAVZU. BANK MARKETINGIDA - INNOVASION RIVOJLANTIRISH MENEJMENTI

Bank faoliti innovasion rivojlantirish zaruriyati. Bankning innovasion rivojlantirish strategiyasi. Bank faoliti innovasion rivojlantirish yo'nalishlari. Raqamlashtirish sharoitida yangi bank texnologiyalarni qo'llash. Raqamli texnologiyalarning turlari va ularning mohiti. Banklarda raqamli transformasiya va bank menejment sohasida qo'llaniladigan dasturlar (CRM, KPI va x.q.). Mijozga qaratilgan yangi bank xizmatlarini joriy etish imkonini oshirish yo'llari

9-MAVZU. BANK XODIMLARINI BOSHQARISH

Bank xodimlarini boshqarish asoslari. Bank xodimlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Bankda xodimlarni boshqarish bo'limining maqsad va vazifalari. Bank xodimlarini boshqarish siyosati. Bank xodimlarini boshqarish usul va mexanizmlari. Bank xodimlarini boshqarishda strategik yondashuv. Bank xodimlarini tanlab olish va joylashtirish. Bank xodimlarini boshqarishda motivasiya va malakasini oshirish usullari.

10-MAVZU. BANKLAR FAOLIYATINI BAHOLASH, REYTING TIZIMLARI

Kredit tashkilotlarning moliyaviy holatini baholash tizimlari. Bank faoliyati menejment sifatini baholash va samaradorlikni tahlil qilish. Banklar ishonchligini baholashda reyting tizimlari. Bank menejment monitoring ko'rsatkichlari. Banklarda riski – menejmentni tashkil qilish va baholash usullarini qo'llash amaliyoti.

II. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

1. Абдурахманова М.М. Деньги и банки/Учебник – Т.: Иктисодиет, 2021. – 359 с.
2. Банковское дело и банковские операции: учебник / М. С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н. Н. Мокеева, Е. Н. Прокофьева, А. Э. Заборовская, А. С. Долгов; – Екатеринбург: Изд- во Урал. Ун-та, 2021. – 567 с.
3. Z. Mamadiyarov, Raqamli bank ishi: O`quv qo`llanma. - T.: TDIU, 2023. - 239 b.
4. Банковское дело. Экспресс-курс : учебное пособие / кол. авторов ; под ред. О.И. Лаврушина. – 3-с изд., перераб. и доп. – М. : КНОРУС, 2009. – 352 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Финансовые и денежно-кредитные методы регулирования экономики: учебник / Н. А. Истомина, Е. А. Смородина, Т. Д. Одинокова, Ю. С. Долганова и др.– Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2020. – 302 с.
2. Финансы, денежное обращение и кредит : учебник / под ред. Л. И. Юзвович, М. С. Марамыгина, Е. Г. Князевой. – Екатеринбург : Изд-во Урал. федер. ун-та, 2019. – 355 с.
3. Makconnell K.R., Bryu S.L., Flinn Sh.M. Ekonomiks: printsiplari, problemlari i politika: Uchebnik: Per. s angl. 21-e izd. M.: INFRA-M, 2019. - 1152. s. John Sloman, Dean Garrat. Economics. Pearson. 10th edition. UK. 2018.
4. Э.Т. Қодиров, Ж.К. Мажидов. Хорижий мамлакатларда банк иши. Ўқув қўлланма.Т . 2016 йил. 184 бет.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.imv.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
3. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
4. www.soliq.uz– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.